

KASBIY STANDART
Oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchilari

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "O'qituvchi-stajyor", «O'qituvchi/assistent», "Katta o'qituvchi", "Dotsent", "Professor" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan yoki rejali, lekin institutsionallashtirilmagan (oiladagi, ish joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga oladigan) ta'lim;

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida (turida) zarur bilim, mahorat, ko'nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart sharoitlari, ishga bo'lgan munosabatiga qo'yiladigan minimal talablarni belgilaydigan hujjat. Kasbiy standart nomi IFUT ga muvofiq guruh (yoki kichik guruh) nomi yoki kasbiy faoliyat sohasi (turi) nomi yoki qamrab olingan kasblarga mutanosib nomdan kelib chiqib nomlanadi;

kompetensiya – shaxsning mehnat vazifasini to'liq, to'g'ri va sifatli bajarish uchun egallangan bilim, mahorat va amaliy tajribalarini turli sharoitlarda qo'llay olish qobiliyati;

ko'nikma – shaxsning mehnat vazifasini to'g'ri bajarishga imkon beradigan bilim va mahoratlarini ma'lum bir sharoitda avtomatik tarzda qo'llay olish qobiliyati;

mahorat – biror masala (mantiqiy, hissiy, ijodiy va amaliy tafakkurni qo'llash)ni hal etish va faoliyatni amalga oshirish maqsadida, bilimlarini qo'llash va kompetentligini namoyish etish qobiliyati;

malaka – shaxsning kasbiy faoliyatining muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

malaka berish – rasmiy ta'lim va o'z-o'zini o'qitish orqali olingan bilim va ko'nikmalarni baholash jarayoni. Ushbu baholash natijalariga ko'ra sertifikat, diplom, yoki malakani tasdiqlovchi boshqa hujjat (malaka darajasi) beriladi;

malaka darajasi – murakkablik, nostandart ish harakatlari, mas'uliyatlik parametrlari bo'yicha farqlanadigan xodimlarning bilimlari, ko'nikmalari, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiqlik darajasi;

Milliy Malaka Tizimi (MMT) – kasbiy malakalar bo'yicha mehnat bozori talabi hamda ta'lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta'lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

Milliy Malakalar Ramkasi (MMR) – bu kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan barcha kompetensiyalarni tavsiflovchi malaka darajalari to'plamidan iborat tuzilma;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

noformal ta'lim – ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejali ta'lim bo'lib, u shaxsning butun hayoti davomida ta'lim olishida rasmiy ta'limiga qo'shimcha va (yoki) muqobildir;

pedagog – (yunon tilidan – παιδαγωγός bola yetaklovchi) – pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs;

pedagogik faoliyat – ta'lim berish, tarbiyalash, baholash va rivojlantirishga qaratilgan professional faoliyat;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-

tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

ta'lim tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

tarbiyaviy ish – talabalar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan faoliyat;

tarmoq malaka ramkasi – tarmoqda tan olinadigan malaka darajalari tizimlashtirilgan tavsifi;

o'quv metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovadan iborat majmua.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ -637-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvarda tasdiqlangan "Davlat ta'lim standartlari to'g'risida"gi nizomi 5-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2008-yil 7-avgustdagi 173-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta'limni olish tartibi to'g'risida»gi nizomi (ro'yxat raqami 1844, 21-avgust, 2008-y.);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2000-yil 16-oktabrdagi

400-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2001-yil 4-oktabrdagi 400-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida" 2012-yil 6-iyuldagi 200-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Magistratura to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 2015-yil 2-martdagi 36-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 24-avgustdagi 275-son qarori, O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomi" 2019-yil 7-iyundagi 470-son qarori;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori O'zMSt 641:2025, (MMK-2025).

3. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

T/r – tartib raqami.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Oliy taʼlim tashkiloti professor-oʻqituvchilari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Oliy taʼlim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni amalga oshirish va taʼlim tashkilotlari (taʼlim beruvchi tashkilotlar) tomonidan asosiy oliy taʼlim dasturlari uchun taʼlim xizmatlarini koʻrsatish	
3.	IFUT boʻyicha seksiya, boʻlim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q Seksiyasi Taʼlim 85 Taʼlim 85.4 Oliy taʼlim 85.40 Oliy taʼlim 85.40.0 Oliy taʼlim	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Oʻqitish va taʼlim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida tashkil etish; fan boʻyicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega boʻlish; ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni amalga oshirish; talabalarning mustaqil fikrlash hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish; taʼlim sifatini baholash va uni doimiy ravishda oshirib borish; kasbiy etika, akademik halollik tamoyillari hamda amaldagi meʼyoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etish.	
5.	Qamrab olingan kasblar roʻyxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		23100 Oʻqituvchi-stajyor	7
		23100 Oʻqituvchi/assistent	7
		23100 Katta oʻqituvchi	7
		23100 Dotsent	8
		23100 Professor	8

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	23100 O'qituvchi-stajyor	A1.7	O'quv-uslubiy va ta'lim jarayonini tashkil etish	A1.01.7	Oliy ta'limning ta'lim dasturlari bo'yicha o'qituvchilik faoliyatini yuritish, amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish
				A1.02.7	Ta'lim dasturlarini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi natijalarini nazorat qilish va baholash
				A1.03.7	O'qituvchilik faoliyatini amalga oshirish uchun o'quv fanlarining ishchi dasturlari va o'quv uslubiy materiallarini ishlab chiqish hamda modernizatsiya qilish
		A2.7	Tarbiyaviy va tashkiliy faoliyatni amalga oshirish	A2.01.7	Talabalar bilan tarbiyaviy ish olib borish
				A2.02.7	Tuzilmali bo'linma faoliyati doiralarida tashkiliy ishni amalga oshirish
2	23100 O'qituvchi	B1.7	O'quv-uslubiy va ta'lim jarayonini tashkil etish	B1.01.7	Oliy ta'limning ta'lim dasturlari bo'yicha o'qituvchilik faoliyatini yuritish, amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish
				B1.02.7	Ta'lim dasturlari asosida talabalar o'zlashtirishi natijalarini nazorat qilish va baholash
				B1.03.7	Ilmiy-tadqiqot, loyiha, amaliy, uslubiy faoliyat bilan shug'ullanish
				B1.04.7	O'qituvchilik faoliyatini amalga oshirish uchun o'quv fanlarining ishchi dasturlari va o'quv uslubiy materiallarini ishlab chiqish hamda modernizatsiya qilish
		B2.7	Tarbiyaviy va tashkiliy faoliyatni amalga oshirish	B2.01.7	Talabalar bilan tarbiyaviy ish olib borish
				B2.02.7	Tuzilmali bo'linma faoliyati doiralarida tashkiliy ishlarni amalga oshirish
D1.7		D1.7		D1.01.7	Oliy ta'limning ta'lim dasturlari bo'yicha o'qituvchilik faoliyatini yuritish

	23100 Katta o'qituvchi		O'quv-uslubiy va ta'lim jarayonini tashkil etish	D1.02.7	Ta'lim dasturlarini talabalar o'zlashtirishi natijalarini nazorat qilish va baholash
				D1.03.7	Talabalarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash mezonlarini qo'llash
				D1.04.7	Zamonaviy pedagogik va raqamli ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish
				D1.05.7	Ilmiy-tadqiqot, loyiha va amaliy, shuningdek, uslubiy faoliyat bilan shug'ullanish
				D1.06.7	O'quv fanlarining ishchi dasturlari va o'quv uslubiy materiallarini ishlab chiqish hamda modernizatsiya qilish
		D2.7	Tarbiyaviy va tashkiliy faoliyatni amalga oshirish	D2.01.7	Talabalar bilan tarbiyaviy ish olib borish
				D2.02.7	Tuzilmali bo'linma va ta'lim tashkiloti faoliyati doirasida tashkiliy ishlarni amalga oshirish
				D2.03.7	O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, jamoada o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini yaratish
		E1.8	Ta'lim faoliyatini amalga oshirish	E1.01.8	Oliy ta'lim va qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish
				E1.02.8	Zamonaviy pedagogik, interaktiv va raqamli ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish
				E1.03.8	Talabalarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda qo'llash
				E1.04.8	Oraliq va yakuniy nazoratlarni tashkil etish hamda natijalarini tahlil qilish
4	23100 Dotsent	E2.8	O'quv-uslubiy faoliyatni ishlab chiqish va takomillashtirish	E2.01.8	O'qitiladigan fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlari va sillabuslarni ishlab chiqish
				E2.02.8	O'quv-uslubiy majmualar, elektron resurslar va baholash materiallarini tayyorlash
				E2.03.8	Ta'lim dasturlarini kasbiy standart, jumladan, fan-texnika rivoji va mehnat bozori talablariga muvofiq yangilash

				E2.04.8	O'quv-uslubiy hujjatlarni ekspertiza va akkreditatsiya jarayonlariga tayyorlash
		E3.8	Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etish	E3.01.8	Ilmiy-tadqiqot, loyiha va innovatsion ishlanmalarni rejalashtirish va amalga oshirish
				E3.02.8	Ilmiy maqolalar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalarni tayyorlash va nashr ettirish
				E3.03.8	Grantlar, xo'jalik shartnomalar va ilmiy loyihalarda ishtirok etish
				E3.04.8	Ilmiy natijalarni ta'lim jarayoniga va amaliyotga joriy etish
		E4.8	Ilmiy-pedagogik rahbarlik va mentorlikni faoliyatini tashkil etish	E4.01.8	Talabalar va xodimlarning ilmiy-tadqiqot, loyiha hamda amaliy faoliyatini tashkil etish
				E4.02.8	Bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilish
				E4.03.8	Yosh o'qituvchilar va tadqiqotchilar faoliyatiga metodik ko'mak ko'rsatish
				E4.04.8	Ilmiy seminarlar, to'garaklar va konferensiyalarni tashkil etish
		E5.8	Tarbiyaviy va ijtimoiy-ma'naviy faoliyatni amalga oshirish	E5.01.8	Talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish
				E5.02.8	Talabalarda akademik halollik, kasbiy etika va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish
				E5.03.8	Talabalarning ijtimoiy faolligi va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash
				E5.04.8	Murabbiylik va maslahat faoliyatini amalga oshirish
		E6.8	Tashkiliy va boshqaruv faoliyatida ishtirok etish	E6.01.8	Kafedra, fakultet va ta'lim tashkiloti miqyosidagi tashkiliy ishlarda ishtirok etish
				E6.02.8	Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ichki nazorat va monitoring jarayonlarida qatnashish
				E6.03.8	Normativ-huquqiy va ichki me'yoriy hujjatlar ijrosini ta'minlash
				E6.04.8	Ta'lim jarayonini rejalashtirish va muvofiqlashtirishga hissa qo'shish

5		E7.8	Kasbiy rivojlanish va malakani oshirish	E7.01.8	Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida muntazam ishtirok etish
				E7.02.8	Ilg'or milliy va xorijiy pedagogik hamda ilmiy tajribalarni o'rganish
				E7.03.8	Ilmiy va pedagogik portfelni shakllantirish va yangilab borish
				E7.04.8	O'z faoliyati samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish choralari belgilash
	23100 Professor	F1.8	Ta'lim faoliyatini amalga oshirish	F1.01.8	Oliy ta'lim va qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlari doirasida ixtisoslashgan fanlardan ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarini olib borish
				F1.02.8	Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni qo'llash
				F1.03.8	Nazorat, baholash va tahlilni tizimli tashkil etish, individual va differensial yondashuvni ta'minlash
				F1.04.8	Ta'lim mazmunini aniq maqsadga yo'naltirib rejalashtirish, samarali o'qitish usul va texnologiyalarni qo'llash
		F2.8	O'quv-uslubiy faoliyatni ishlab chiqish va modernizatsiya qilish	F2.01.8	Ta'lim dasturlarini kasbiy standartlar hamda fan-texnika rivoji va mehnat bozori talablariga muvofiq yangilash
				F2.02.8	Fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlar, sillabuslar va o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish
				F2.03.8	Darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlashda ishtirok etish
				F2.04.8	O'quv-uslubiy materiallarni zamonaviy fan yutuqlari va mehnat bozori talablariga mos ravishda yangilash
				F2.05.8	O'quv-uslubiy hujjatlarni ta'lim sifati talablari asosida ekspertizadan o'tkazish
		F3.8	Ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatni amalga oshirish	F3.01.8	Ilmiy-tadqiqot, loyiha va amaliy ishlarni olib borish
				F3.02.8	Ilmiy maqolalar, o'quv-ilmiy nashrlar va uslubiy ishlanmalarni tayyorlash hamda chop etish

				F3.03.8	Ilmiy loyihalar, grantlar va xo'jalik shartnomalarda ijrochi yoki mas'ul ijrochi sifatida ishtirok etish
				F3.04.8	Ilmiy natijalarni ta'lim jarayoniga va amaliyotga joriy etish
		F4.8	Ilmiy-pedagogik rahbarlik va maslahat berish	F4.01.8	Talabalar, magistrantlar va yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga rahbarlik qilish
				F4.02.8	Bitiruv malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiyalarga ilmiy rahbar yoki maslahatchi bo'lish
				F4.03.8	Ilmiy seminarlar, to'garaklar va uslubiy yig'ilishlarda faol ishtirok etish
				F4.04.8	Yosh professor-o'qituvchilarga metodik va ilmiy maslahatlar berish
		F5.8	Tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish	F5.01.8	Talabalar bilan tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borish
				F5.02.8	Talabalarda akademik halollik, kasbiy etika va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish
				F5.03.8	Murabbiylik faoliyatini amalga oshirish va talabalarning kasbiy rivojlanishiga ko'maklashish
		F6.8	Tashkiliy va uslubiy faoliyatda ishtirok etish	F6.01.8	Kafedra, fakultet va ta'lim tashkilot miqyosidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirishda ishtirok etish
				F6.02.8	Ta'lim va ilmiy jarayonlarni rejalashtirishda takliflar berish
				F6.03.8	Ichki monitoring, attestatsiya va akkreditatsiya jarayonlarida ekspert sifatida qatnashish
				F6.04.8	Ichki me'yoriy hujjatlar ijrosini ta'minlash
		F7.8	Kasbiy rivojlanish va malaka oshirish	F7.01.8	Malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarida muntazam ishtirok etish
				F7.02.8	Ilg'or milliy va xorijiy ilmiy-pedagogik tajribalarni o'rganish va joriy etish
				F7.03.8	Shaxsiy ilmiy va pedagogik faoliyat samaradorligini tahlil qilish
				F7.04.8	Kasbiy kompetensiyalarni uzluksiz rivojlantirib borish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	O'qituvchi-stajyor	
Mashg'ulot nomining kodi:	23100	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	7	
Malakani baholashga qo'yilgan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar	Dars beradigan o'quv fanlariga mos pedagogik yoki muhandis-pedagogik oliy ma'lumot, ilmiy daraja yoki ilmiy unvon bo'lganda o'qituvchi-stajyorga staj talab qilinmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi; o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	magistratura; yuqori darajadagi qo'shimcha ta'lim (internatura, ordinatura, biznes boshqaruvi, davlat boshqaruvi va boshqa xalqaro tan olingan ta'lim); mutaxassislik (spetsialitet); bakalavriat va amaliy tajriba;	
Informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Oliy ta'lim pedagoglari	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	-	-
	-	-
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.7- O'quv-uslubiy va ta'lim jarayonini tashkil etish	A1.01.7- Oliy ta'limning ta'lim dasturlari bo'yicha	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. O'quv fanlari, kurslari bo'yicha o'quv (amaliy va seminar) mashg'ulotlarini o'tkazish

	o'qituvchilik faoliyatini yuritish, amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish	2. O'quv fanlari, kurslari (modullari) bo'yicha talabalarining mustaqil ishini tashkil qilish
		3. O'quv fanlari, kurslari (modullari) bo'yicha talabalarga maslahat berish
		Ko'nikmalar:
		Talabalar o'zlashtiradigan faoliyatni bajarishda va faoliyat unsurlarini namoyish qilish, o'quv fani, kursi (moduli) dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish
		O'quv fani, kursi (moduli) o'zlashtirish, mustaqil ish uchun vazifalarni bajargan talabalar faoliyatini rag'batlantirish; o'z ishini tashkil qilish va o'zini nazorat qilishga o'rgatish
		Mashg'ulotlarda talabalarining mehnat muhofazasi talablariga rioya qilishini nazorat qilish
		Bilimlar:
		Talabalar faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslangan shakllari, usullari va yo'llari, o'qitishning zamonaviy texnik vositalari va ta'lim texnologiyalari
		O'quv fani, kursi (moduli)ni o'zlashtirib, mustaqil ish uchun vazifalarni bajargan talabalar faoliyatini rag'batlantirish
		Mashg'ulotlarda talabalarining amaliyot talablarini (dars jarayonida amaliyot darslarini) tahlil qilib o'rganish
		Talabalar o'zlashtiradigan faoliyatni bajarish va faoliyat unsurlarini namoyish qilish va o'quv fani, kursi (moduli) dasturida ko'zda tutilgan talabalar
	A1.02.7- Ta'lim dasturlarini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi natijalarini nazorat qilish va baholash	Mehnat harakatlari:
		1. Talabalarining ta'lim dasturlarini o'zlashtirishni nazorat qilish.
		2. Talabalarining ta'lim dasturlarini o'zlashtirishini baholash.
		3. Talabalarining ta'lim dasturlarini o'zlashtirish masalalari bo'yicha talabalarga, ularning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) maslahatlar berish.
		Ko'nikmalar:
		Fan (modul)ning o'quv kursini o'rganish jarayonida talabalarining tayyorgarlik sur'ati va rag'batini baholash.
		Nazorat-o'lchov va nazorat-baholash vositalarini ishlab chiqish va qo'llash, nazorat va baholash natijalarini talqin qilish.
		Bilimlar:
		Ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga mos jihatlarini o'rganish.

		Bozor qonuniyatlari, iqtisodiy tahlil uslublari, moliyaviy hisob-kitoblar, soliq tizimi, buxgalteriya hisoboti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy rejalashtirish.
		Mashg'ulotlarda talabalarning mehnat muhofazasi talablarini o'rganish.
A1.03.7- O'qituvchilik faoliyatini amalga oshirish uchun o'quv fanlarining ishchi dasturlari va o'quv uslubiy materiallarini ishlab chiqish hamda modernizatsiya qilish		Mehnat harakatlari:
		1. O'quv fanlari, kurs (modul)lari ishchi dasturlarini (malaka darajasi yuqoriroq mutaxassis rahbarligi ostida) ishlab chiqish va modernizatsiya qilish.
		2. O'qitiladigan o'quv fanlari, kurs (modul)lari o'quv mashg'ulotlarining ayrim turlarini o'tkazish uchun o'quv-uslubiy materiallarni (malaka darajasi yuqoriroq mutaxassis rahbarligida) ishlab chiqish.
		3. O'quv fanlari, kurs (modul)larini amalga oshirishni ta'minlovchi hujjatlarni yuritish.
		Ko'nikmalar:
		Talabalarning hayoti va salomatligini muhofaza qilishning sanitar-gigiyenik me'yorlari va talablari hujjatlarini rasmiylashtirish.
		Talabalarning ta'lim ehtiyojlari, tayyorgarligi va rivojlanishi orqali ta'lim dasturining mazmunini individuallashtirish asosida uni o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratish.
		Ilmiy va ilmiy-ommaviy usul talablarini hisobga olgan holda hujjatlarni rasmiylashtirish.
		Hujjatlarni yuritish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.
		Bilimlar:
		Oliy ta'limning ta'lim dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni ishlab chiqish va modernizatsiyalash tartibi va talablari.
		O'qitiladigan o'quv fanlari, kurs (modul)lariga mos keluvchi bilim va kasbiy faoliyat sohasining bugungi holati.
		Hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ilmiy va ilmiy-ommabop usul talablari.
		Hujjatlarni yuritish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalar ko'nikmalari.
	A2.04.7- Talabalar bilan tarbiyaviy ish olib borish	Mehnat harakatlari:
		1. Tuzilmaviy bo'linmaning yig'ilish yoki boshqa jamoaviy ishida ishtirok etish.
		2. Talabalar guruhiga murabbiylik.
		3. Anjumanlar, ko'rgazmalar, kasbiy mahorat tanlovlar, olimpiadalar, boshqa tanlovlar va o'xshash tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda vakolatli rahbarning rahbarligida ishtirok etish.

		4.Kasbga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda vakolatli rahbarlarning rahbarligida ishtirok etish.
		5.Tuzilmaviy bo'linmaning o'quv-uslubiy ishini, bo'linmaning ilmiy-pedagogik xodimlarining kasbiy faoliyatidagi ijobiy tajriba bilan almashish va tarqatishini vakolatli rahbarning rahbarligida tashkil etish.
		6.Talabalar bilan o'tkaziladigan, tarbiyaviy, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, ijodiy va boshqa tadbirlar rejalarida ko'zda tutilgan ish.
		7.Ta'lim tashkilotining saytida tuzilmali bo'limning internet-sahifasini yuritish.
		Ko'nikmalar:
		Talabalar bilan samarali kommunikatsiya va muloqot qilish
		Talabalar orasida ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish
		Tarbiyaviy jarayonlarni rejalashtirish va tashkil etish
		Talabalar bilan individual va guruhlarda ishlash, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish
		Muammolarni aniqlash va ularni hal qilish, konfliktlarni boshqarish
		Talabalar faoliyatini monitoring qilish va tarbiyaviy natijalarni baholash
		Ijtimoiy, madaniy va sport tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish
		Bilimlar:
		Ta'lim va tarbiya sohasiga oid O'zbekiston Respublikasining qonunlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlari
		Oliy ta'lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning maqsadi, vazifalari va asosiy yo'nalishlari
		Talabalarning yoshga oid, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari
		Ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy, huquqiy va vatanparvarlik tarbiyasining asoslari
		Akademik halollik tamoyillari va kasbiy-pedagogik etika qoidalari
		Talabalar bilan individual va guruh tarbiyaviy ishlash shakl va usullari
		Tarbiyaviy tadbirlar (suhbat, davra suhbat, uchrashuv, ma'naviy soat)ni tashkil etish asoslari.
		Talabalar o'rtasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish usullari.
		Pedagogik muloqot, tinglash va ta'sir ko'rsatishning samarali usullari.

		Konfliktli vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish asoslari.
		Murabbiylik (tyutorlik) faoliyatining mazmuni va vazifalari.
A2.05.7- Tuzilmali bo'linma faoliyati doiralarida tashkiliy ishni amalga oshirish		Talabalarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va mas'uliyatini rivojlantirish yo'llari.
		Oldindan aytib bo'lmaydigan o'quv yoki kasbiy faoliyat muhitida qarorlar qabul qilish va birlashtirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarishning talablari
		Mehnat harakatlari:
		1.O'quv fanlar, kurs (modul)lar, ishchi dasturlarni (malaka darajasi yuqoriroq mutaxassis rahbarligida) ishlab chiqish va modernizatsiya qilish.
		2.O'quv qo'llanmalar, uslubiy va o'quv-uslubiy materiallarni, ishlab chiqarish va modernizatsiya qilish.
		3.O'quv fanlar, kurs (modul)larni amalga oshirishni ta'minlovchi hujjatlarni yuritish hamda maslahatlar berish.
		Ko'nikmalar:
		Qonunchilikda belgilangan ta'limga oid tamoyillar va qoidalarga rioya qilgan holda qog'oz hamda elektron tashuvchilardagi hujjatlarni yuritish va nazorat qilish.
		Talabalar uchun murabbiylik (mentorlik) faoliyatini amalga oshirish.
		Ilmiy-pedagogik xodimlar ishtirokida muhokamalarni, shuningdek o'quv-uslubiy masalalar bo'yicha yig'ilish va maslahatlarni tashkil etish.
		Tuzilmaviy bo'linmada o'quv-uslubiy ishlar holatini tahlil qilish va ularni rejalashtirish.
		Ta'lim tashkilotining rasmiy veb-sayti hamda Internet jahon axborot tarmog'ida faoliyatni yuritish va monitoring qilish.
		Bilimlar:
		O'quv va boshqa hujjatlarga, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarga ega hujjatlarni yuritish hamda ular bilan ishlash tartibini bilish.
		Oliy ta'limning ta'lim dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni ishlab chiqish va modernizatsiyalash tartibini bilish.
		O'qitiladigan o'quv fanlari, kurs (modul)lariga mos keluvchi bilim va kasbiy faoliyat sohasining bugungi holatidan xabardor bo'lish.
		Hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ilmiy va ilmiy-ommasop usul talablari ko'nikmasiga ega bo'lish.

	Mas’uliyat va mustaqillik:	1.O’quv yoki kasbiy faoliyat sohasida qarorlar qabul qilish va mas’uliyatni o’z zimmasiga olish, murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish.
2.Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro’sini hurmat qilish.		
3.Tashkilotning ustaviga va boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etish.		
Texnik va/yoki texnologik talab		Dasturiy ta’minot va platformalardan samarali foydalanish, oflayn va onlayn tahrirlash vositalari (Microsoft Office (Word, Excel, PowerPoint), Google Docs, Sheets, Slides), test tuzish va baholash vositalari (Google Forms, Quizizz, Kahoot, Socrative), prezentatsiya va infografika yaratish dasturlari (Canva, Prezi, Piktochart), texnik yo’nalishlar uchun: AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, LabVIEW, Arduino IDE Simulyatorlar: Proteus, Multisim va h.k. Iqtisodiyot va buxgalteriya yo’nalishlari uchun: 1C Buxgalteriya, Excel’da formula va avtomatlashtirish, CRM tizimlari, elektron hujjat aylanmasi Dizayn va san’at yo’nalishlar uchun: Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyati: STEM/STEAM loyihalarida qatnashish, AR/VR vositalar yordamida amaliy mashg’ulotlarni boyitish, Onlayn kurs va sertifikatlar: Google for Education, UNESCO, Microsoft Educator va boshqalar

Kasbning nomi:	O'qituvchi/assistent
Mashg'ulot nomining kodi:	23100
TMR bo'yicha malaka darajasi:	7
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Dars beradigan o'quv fanlariga mos pedagogik yoki muhandis-pedagogik oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi yoki ilmiy unvoni bo'lganda o'qituvchi-stajyor staji talab qilinmaydi.

Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi; o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	magistratura; yuqori darajadagi qo'shimcha ta'lim (internatura, ordinatura, biznes boshqaruvi, davlat boshqaruvi va boshqa xalqaro tan olingan ta'lim); mutaxassislik (spetsialitet); bakalavriat va amaliy tajriba;	
Informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Oliy ta'lim pedagoglari	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi: 7 7 7 7 7 7 7 7 7 7 7 7 7	Kasbning nomi: Antropologiya bo'yicha professor-o'qituvchi Arxeologiya bo'yicha professor-o'qituvchi Arxitektura bo'yicha professor-o'qituvchi Atrof-muhit muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi Axborot tizimlari va texnologiyalari bo'yicha professor- o'qituvchi Axborot va hujjat boshqaruvi bo'yicha professor-o'qituvchi Baholash xizmatlari bo'yicha professor-o'qituvchi Baliq yetishtirish va akvakultura bo'yicha professor-o'qituvchi Biologiya bo'yicha professor-o'qituvchi Biotexnologiya bo'yicha professor-o'qituvchi Bolalar rivojlanishi va ta'limi bo'yicha professor-o'qituvchi Boshqa professor-o'qituvchilar

7	Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Dasturlash bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Davlat boshqaruvi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Din va dinshunoslik bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Ekologiya bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Elektronika muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Energetika muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Etnologiya bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Falsafa bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Farmatsevtika bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Fizika bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Geodeziya bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Geografiya bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Geologiya bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Gidravlika bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Harbiy ish va xavfsizlik sohasi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Huquq bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Ijtimoiy ta'minotni tashkil etish bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Iqtisodiyot bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Ishlab chiqarish muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Ishlab chiqarishda gigiyena va mehnat muhofazasi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Jurnalistika va axborot siyosati bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Kimyo bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Kimyo muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Kompyuter fanlari bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Konchilik muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Kutubxona ishi bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Madaniyatshunoslik bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Matematika bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Materialshunoslik bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Menejment bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Meteorologiya bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Metrologiya va standartlashtirish bo'yicha professor-o'qituvchi
7	Mexanika muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi

	7	Mexatronika va robototexnika bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Nazorat va boshqaruv tizimlari bo'yicha professor-o'qituvchi
		O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Oziq-ovqat tahlili bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Pedagogika bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Psixologiya bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Qoraqalpoq tili va adabiyoti bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Qurilish materiallari bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Qurilish muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Rus tili va adabiyoti bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	San'atshunoslik bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Siyosatshunoslik bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Sotsiologiya bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Stomatologiya bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Sun'iy intellekt bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Tabiiy fanlar bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Ta'lim bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Tarix bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Telekommunikatsiya bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Teologiya fanlari bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Termodinamika va issiqlik texnikasi bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Tibbiy fanlar bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Tilshunoslik bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Transport muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Veterinariya tibbiyoti bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Xalqaro munosabatlar bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Xorijiy tillar va adabiyoti bo'yicha professor-o'qituvchi
	7	Yadro muhandisligi bo'yicha professor-o'qituvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.7-	B1.01.7-	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1.O'quv fanlari, kurs (modul)lari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish.

Ta'lim, shuningdek ilmiy-tadqiqot loyiha, amaliy, uslubiy faoliyatni amalga oshirish	Oliy ta'limning ta'lim dasturlari bo'yicha o'qituvchilik faoliyatini yuritish, amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish	2. Amalga oshirish algoritmi bilan belgilanadigan mehnat funksiyasi mazmunining muhim qismini tashkil etish.
		3. O'quv fanlari, kurslari (modullari) bo'yicha talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish.
		4. O'quv fanlari, kurslari (modullari) bo'yicha talabalarga maslahat berish.
		Ko'nikmalar:
		Takrorlash orqali shakllangan harakat, yuqori o'zlashtirish darajasi va elementma-element ongli tartibga solish va boshqarish (ya'ni avtomatlashtirish) yo'qligi bilan tavsiflanadi.
		Talabalar o'zlashtiradigan faoliyatni bajarishda va faoliyat unsurlarini namoyish qilish va o'quv fani, kursi (moduli) dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish.
		O'quv fani, kursi (moduli)ni o'zlashtirib, mustaqil ish uchun vazifalarni bajargan talabalar faoliyatini rag'batlantirish; o'z ishini tashkil qilish.
		Mashg'ulotlarda talabalarning mehnat muhofazasi talablariga rioya qilishini nazorat qilish.
		Bilimlar:
		Mutaxassisning kasbiy faoliyati doirasida zarur bo'lgan, ta'lim jarayonida yoki amaliy tajriba orqali egallanadigan, kasbga oid asosiy tushunchalar, qonuniyatlar, qoidalar, uslublar va boshqa axborotlar jamlamasi.
		Talabalar faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslangan shakllari, usullari va yo'llaridan foydalanish, o'qitishning zamonaviy texnik vositalari va ta'lim texnologiyalarini qo'llash, shu jumladan zarurat bo'lganda elektron o'qitishni masofaviy ta'lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, elektron ta'lim orqali amalga oshirish.
		O'qituvchining kasbiy faoliyatiga yo'naltirilgan, insonparvarlik, chuqur anglash, fan sohasiga oid chuqurlik, pedagogik metod va texnologiyalarni puxta bilish, shuningdek, xalqaro pedagogik tajriba bilan integratsiyalashish, hamkasblar bilan konstruktiv muloqot va mentorlik hamda kreativ yondashuvlarni o'z ichiga olgan bilimlar majmuasidir.
		O'quv fanini, kursi (moduli)ni o'zlashtirib, mustaqil ish uchun vazifalarni bajargan talabalar faoliyatini rag'batlantirish; o'z ishini tashkil qilish va o'zini nazorat qilishga o'rgatish;
		O'quv fanlari, kurslari (modullari) bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish hamda yangicha bilimlarga ega bo'lish.
B1.7-	B1.02.7-	Mehnat harakatlari:
		1. Talabalarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishni nazorat qilish.
		2. Talabalarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishini baholash.

Ta'lim, shuningdek ilmiy-tadqiqot loyiha amaliy uslubiy faoliyatni amalga oshirish	Ta'lim dasturlarini talabalar o'zlashtirishi natijalarini nazorat qilish baholash	3.Talabalarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish masalalari bo'yicha talabalarga, ularning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) maslahatlar berish.
		Ko'nikmalar:
		Fan (modul)ning o'quv kursini o'rganish jarayonida talabalarning tayyorgarlik sur'ati va rag'batini baholash.
		Nazorat-o'lchov va nazorat-baholash vositalarini ishlab chiqish va qo'llash, nazorat va baholash natijalarini tahlil qilish.
		Bilimlar:
		Ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xosliklari.
		Ta'lim jarayonini tashkil etish qismidagi ta'limni tashkil etishning cheklangan me'yoriy hujjatlari.
		Kasbiy ta'limning zamonaviy ta'lim texnologiyalari.
		Mehnat harakatlari:
		1.O'quv fanlari, kurs (modul)lari ishchi dasturlarini (malaka darajasi yuqoriroq mutaxassis rahbarligida) ishlab chiqish.
B1.03.7- Ilmiy-tadqiqot, loyiha,amaliy, uslubiy faoliyatni yuritish		2.O'quv qo'llanmalar, uslubiy va o'quv-uslubiy materiallarni, shu jumladan, o'quv fanlari, kurs (modul)larini amalga oshirishni ta'minlovchi baholash vositalarini (ishlab chiqaruvchi guruh tarkibida va malaka darajasi yuqoriroq mutaxassis rahbarligida) ishlab chiqarish va modernizatsiya qilish.
		3.O'quv fanlari, kurs (modul)larini amalga oshirishni ta'minlovchi hujjatlarni yuritish.
		Ko'nikmalar:
		Ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan OT DTS ga mos keluvchi ta'lim standartlarini nazorat qilish.
		Talabalarning hayoti va salomatligini muhofaza qilishning sanitar-gigiyenik me'yorlari hamda talablarini nazorat qilish, shuningdek, uni amalga oshirish.
		Talabalarning ta'lim ehtiyojlari, tayyorgarligi va rivojlanishi; ta'lim dasturining mazmunini individuallashtirish asosida uni o'zlashtirish imkoniyatlari zamonaviy rivojlanishni tashkil etish
		Ilmiy va ilmiy-ommabop usul talablarini hisobga olgan holda hujjatlarni rasmiylashtirish vazifalarini bajarish.
		Hujjatlarni yuritish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni amalga oshirish.
		Bilimlar:
		Ta'lim jarayonini tashkil etish, oliy ta'lim ta'lim dasturlari, o'quv-uslubiy materiallar hamda boshqa hujjatlarni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni yuritish va ularga kirish tartibi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish.
		Oliy ta'lim ta'lim dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini ishlab chiqish hamda modernizatsiyalashda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.

		Ta'lim beradigan o'quv fanlari, kurs (modul)lariga mos keluvchi o'quv dasturlarini o'rganish. Hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ilmiy va ilmiy-ommabop usul talablari va bilimlariga ega bo'lish.
